WORLD CONFERENCE ON STUDENT - CENTERED LEARNING APPROACHES

BUXORO VA ROSSIYA O‘RTASIDAGI DIPLOMATIK MUNOSABATLAR

Ismoilova Roxila Nortojiyevna

Mustaqil tadqiqotchi

https://orcid.org/0009-0009-2494-339X

Annotatsiya. Mazkur maqolada Buxoro amirligi va Rossiya o‘rtasidagi diplomatik munosabatlarning shakllanishi va rivojlanishi, ularning siyosiy, iqtisodiy va harbiy-strategik jihatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda, ayniqsa, XIX asrning ikkinchi yarmida Buxoro–Rossiya munosabatlarining yangi bosqichga ko‘tarilishi, Rossiya imperiyasining Markaziy Osiyodagi siyosiy va harbiy ekspansiyasi, Buxoro amirligining diplomatik strategiyasi hamda siyosiy-diplomatik jarayonlarga alohida e’tibor qaratilgan. Shuningdek, Rossiyaning Buxoro bilan savdo va diplomatik aloqalarni rivojlantirish orqali o‘zining Markaziy Osiyodagi ta’sirini kuchaytirishi, diplomatik muzokaralar bilan bir qatorda harbiy bosimdan foydalanishi yoritiladi. 1868 yilgi harbiy voqealardan keyin tuzilgan kelishuvlar natijasida Buxoro amirligining tashqi siyosiy mustaqilligi jiddiy cheklangani, biroq ichki boshqaruv tizimi saqlanib qolgani ko‘rsatiladi. Maqolada Buxoro–Rossiya diplomatik munosabatlarining tarixiy ahamiyati ikki davlat o‘rtasidagi aloqalar doirasidan kengroq bo‘lib, XIX asrda Markaziy Osiyoning geosiyosiy o‘zgarishlari bilan uzviy bog‘liq ekanligi asoslanadi.

Kalit so‘zlar: Buxoro amirligi, Rossiya imperiyasi, diplomatik munosabatlar, elchilik, tashqi siyosat, Amir Muzaffar, Markaziy Osiyo, Rossiya ekspansiyasi, savdo aloqalari, diplomatik muzokaralar.

KIRISH. XIX asrda Markaziy Osiyoda yuz bergan siyosiy jarayonlar mintaqa davlatlarining tashqi siyosiy munosabatlariga jiddiy ta’sir ko‘rsatdi. Buxoro amirligi ushbu jarayonlarning markazida turgan siyosiy tuzilmalardan biri bo‘lib, uning Rossiya imperiyasi bilan munosabatlari mintaqa tarixida alohida o‘rin egallaydi.

Buxoro va Rossiya o‘rtasidagi aloqalar dastlab savdo, diplomatik va elchilik munosabatlari shaklida rivojlangan bo‘lsa, XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib ushbu munosabatlar tobora siyosiy va harbiy mazmun kasb eta boshladi. Buxoro amirligining xorijiy mamlakatlar bilan o‘zaro tijorat va savdo-sotiq munosabatlari hamda aloqalarida Rossiya asosiy o‘rinni egallagan. Shu sababdan rus mahsulotlariga Buxoroda, Buxoro tovarlariga Rossiyada talab va ehtiyoj katta edi hamda bu narsa har ikkala davlat o‘rtasidagi o‘zaro savdo-sotiq hajmining ortib borishiga olib keldi. Tijorat ishlari va savdosotiq ayniqsa XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib bir necha baravar o‘sdi. Buxorolik savdogarlar Rossiyaning Orenburg, Orsk, Tyumen, Astraxan, Moskva, Peterburg, Qozon kabi shaharlarida qizg‘in savdo ishlarini olib borish bilan birga, Nijegorod, Moskva, Sankt-Peterburg kabi shaharlaridagi savdo ko‘rgazmalarida o‘z mollari bilan faol ishtirok etishgan.

ASOSIY QISM. XIX asrning ikkinchi yarmida Rossiya imperiyasi og‘ir ahvolni boshdan kechirayotgan edi. Qrim urushi sababli mamlakat iqtisodiyoti va moliya tizimida qiyinchiliklar yuzaga keldi. Uning qishloq xo‘jaligi krepostnoy huquqi zanjirlariga qattiq bog‘langanligi sabab rivojlanish ancha sust bo‘lgan. 1860-1870 yillar orasida amalga oshirilgan islohotlar imperiyani huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati tomon siljishga olib keldi. XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib agrar xo‘jalik yetakchilik qilgan Rossiya imperiyasi xorijga asosan g‘alla, zig‘ir, kanop, mo‘yna, yog‘och eksport qilib, Germaniya va Angliya uning asosiy savdo hamkorlari bo‘lgan. Albatta, ruslar Sharq mamlakatlari bilan savdo-sotiq munosabatlarini faollashtirdi. Bu davrda imperiyaning Xitoy, Hindiston, Eron va Osiyoning boshqa davlatlari bilan tijoriy aloqalari kengaydi. XIX asr ikkinchi yarmida Rossiya hukumati rivojlanish va taraqqiyotdan orqada bo‘lgan O‘rta Osiyo mamlakatlarini o‘z mustamlakasiga aylantirish yo‘lidan borib, ularni xomashyo bazasiga aylantirish uchun harbiy harakatlarga zo‘r berdi. 1852 yilda Orenburg general-gubernatori Krijanovskiy Rossiya hukumatiga yo‘llagan xatida: “Bu o‘lkalarni o‘zimizga tezroq bo‘ysundirib,

o‘lkada har bir harakatimiz va so‘zimizni qonun darajasiga ko‘tarmas ekanmiz, O‘rta Osiyoda rus savdosining rivojini tasavvur qilishimiz qiyin”, deb ta’kidlaydi 1.

Rossiya imperiyasi tomonidan O‘rta Osiyo xonliklariga yuboriladigan har qanday diplomatik, elchilik missiyalarida imperiya tashqi siyosati manfaatlari uchun xizmat qiladigan turli pinhoniy hiyla-nayrang va makkorliklar ishlatilgan. 1858 yilda N.P. Ignatev boshchiligidagi rus missiyasi Buxoro amirligiga tashrif buyuradi va N.Ignatev Buxoro amiri bilan uchrashib, mamlakatda rus savdogarlarining mollaridan olinadigan bojlarni kamaytirish, Buxoroda Rossiya muvaqqat savdo agentligini joriy qilish, tutqindagi rus asirlarini ozod qilish, rus savdogarlari uchun alohida karvonsaroylar ajratish kabi talab va takliflarini bu hududda joriy etishga kelishadi 2. Ammo ruslar tomonidan ilgari surgan talablarning aksariyati Buxoro hukumati tomonidan ijro qilinmagan 3.

Bu davrda Buxoro-Rossiya o‘rtasidagi savdo aloqalarida bir oz jonlanish kuzatiladi. Bunga turli davrlardagi tijoriy munosabatlarni kuzatish orqali guvoh bo‘lish mumkin: XVIII asr o‘rtalarida Orenburgdan Buxoroga olib kelingan har bir tuya yuk uchun 17-25 rubl4 miqdorida kira haqi olingan bo‘lsa, XIX asrning o‘rtalariga kelib esa bu xarajat 9-16 rublga arzonlashgan. Ye.K. Meyendorf Troiskdan Buxoroga olib kelingan yuk uchun taxminan 6 rubl kira haqi olinganini yozadi 5.

Buxoro amirligi bilan Rossiya savdo aloqalarning rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatgan omillardan biri, bu yo‘l xarajatining arzonlashuvi emas, balki o‘sha davrda karvon yo‘li xavfsizligining to‘liq ta’minlanishi bo‘lgan. L.Yavorskiyning so‘zlariga ko‘ra, karvon yo‘llari xavfsizligi ta’minlanishi tufayli Rossiyadan Buxoroga har yili 25-30 ming, Hindistondan 12 ming, Eron va Xurosondan 3 ming tuya yuk ortilgan savdo karvonlari tashrif buyurgan. Shuningdek, u Buxoro bozorlarida xaridorgir va ko‘proq sotib olinadigan tijoriy mollarning sifati masalasida fikr yuritib, unda eng sara

1 Рожкова М.К. Экономические связи России со Средней Азии 40-60-е годы XIX века. – М., 1963. – С.45.
2 Игнатьев Н.П. Миссии в Хиву и Бухару в 1858 г., – СПб., 1897. – С. 228.
3 Туркестанские ведомости. 1871. № 5.
4 Черемшанский В. М. Описание Оренбургской губернии. –Уфа, 1859. – С. 393.
5 Мейендорф Е.К. Путешествие из Оренбурга в Бухару. (Перевод с франц. Е.Бетгера). – М., 1975. – С.124.

mahsulotlar ro‘yxatida birinchi navbatda fransuz tovarlari, keyingi o‘rinlarda esa rus va ingliz mahsulotlari turishini ta’kidlaydi 6.

Buxoro aholisining asosiy qismi kunlik ibodat, diniy rasm-rusumlar bilan mashg‘ul bo‘lsa, boshqa bir qismi esa savdosotiq ishlarini amalga oshirish bilan ro‘zg‘or tebratgan. Buxoro shahri Sharq va O‘rta Osiyo, shuningdek, Yevropa uchun ham savdo markazi yoki merkantil ombor vazifasini bajargan shahar hisoblangan. Buxoroning o‘zida 60 ga yaqin karvonsaroy faoliyat yuritgan. Musulmon sharqidagi mazkur davlatning O‘rta Osiyoning boshqa xonliklaridan ajralib turadigan muhim jihati shunda ediki, bu yerda o‘ziga to‘q, boy savdogarlar son jihatdan ko‘pchilikni tashkil qilgan bo‘lib, aynan shunday ish ko‘zini biladigan tojirlar karvonsaroylarni qurishga tashabbus ko‘rsatib kelgan. Hatto boshqa millatga mansub bo‘lgan xorij fuqarolari ham Buxoroda o‘zining karvonsaroyiga ega bo‘lgan. Rossiyadan kelgan savdogarlarning aksariyati Olim karvonsaroyida o‘zlariga qo‘nimgoh topishgan bo‘lsa, imperiyadan kelgan rus tatarlari esa asosan No‘g‘oy-Sari karvonsaroyidan foydalanishgan 7.

1840-1850 yillarda O‘rta Osiyo xonliklari va Rossiya o‘rtasida 10 mln. funt-sterling hajmda savdo-sotiq ishlari amalga oshirilgan bo‘lib, shundan 788 785 funt-sterlingi Buxoro amirligi, 199830 funt-sterlingi Xiva xonligi, 39936 funtsterlingi esa Qo‘qon xonligi hisobiga to‘g‘ri kelgan8. Bu ma’lumotlar ham Buxoro va Rossiya o‘rtasida olib borilgan savdo aloqalari boshqa xonliklarga nisbatan ancha yaxshi yo‘lga qo‘yilganligi va amirlikning O‘rta Osiyoda nufuzi yuqori bo‘lganligidan dalolat beradi. 1850-1852 yillarda Buxoro va Rossiya o‘rtasida 4 mln. rubllik mahsulotlar savdoga chiqarilgan9.

1855-1865 yillarda Buxoro-Rossiya savdo munosabatlariga nazar tashlasak, unda Buxorodan Rossiyaga mahsulot eksporti 5,5 barobarga, Rossiyadan Buxoroga

6 Яворского И.Л Путешествие русского посольства по Афганистану и Бухарскому ханству в 1878-1879 гг. –СПб., 1882 – С.342.
7 Костенко Л.Ф. Путешетвие С Бухару Русских Мисси в 1870 году. – СПб.,1871. – С.86
8 Туркестанский сборник. Т.12. – С. 337-341.
9 Михалева Г.А. Узбегистан в XVIII – первой половина XIX века ремесло... – С. 100.

mahsulot importi hajmi esa 3 baravarga o‘sgan. Masalan, 1840-1850 yillardagi savdo aylanmasi 12 525 ming rublni, 1867 yilda bir yillik savdo aylanmasi esa 10 525 ming rublni tashkil qilgan[10].

Rossiyaning O‘rta Osiyoga nisbatan olib borgan harbiy bosqinchilik va istilochilik harakatlari Buxoro va Rossiya o‘rtasida yo‘lga qo‘yilgan savdo jarayoniga jiddiy ta’sir qilgan. Shu munosabat bilan 1864 yilda Buxorodan Rossiyaga 6 868 343 rubllik savdo mollari chiqarilgan bo‘lsa, 1865 yilda bu ko‘rsatkich 3 454 319 rublga tushib ketadi. Rossiyadan Buxoroga tovarlar hajmi esa 4 654 988 rubldan 2 250 853 rublga qisqarib ketgan[11]. 1866 yilda Buxorodan Rossiyaga olib borilgan tovarlarning umumiy narxi 3 454 ming rublni, Rossiyadan Buxoroga olib kelingan mollarning umumiy qiymati esa 877 ming rublni tashkil etgan[12]. 1867 yildan boshlab esa Buxoro-Rossiya o‘rtasida savdo hajmi yana orta borganligi kuzatiladi. Shu yili Buxoro amirligidan 6 mln. 215 ming[13] rubllik mollar chiqarilgan bo‘lsa, Rossiyadan 4 mln. 310 ming rubllik mahsulotlar import qilingan[14].

Rossiya imperiyasi amirlikni o‘ziga bo‘ysundirgunga qadar bo‘lgan davrda Buxoro-Rossiya o‘rtasida amalga oshirilgan savdo balansiga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, Buxoro amirligining Rossiyaga nisbatan eksport salohiyati ancha yuqori bo‘lganligiga guvoh bo‘lamiz. Shuningdek, Rossiya imperiyasi Toshkentni bosib olgandan keyin ham Buxoro amirligi Rossiyaga paxta, ipak, qorako‘l teri va ip-gazlama chiqarish bo‘yicha O‘rta Osiyodagi asosiy markaz sifatidagi ahamiyatini saqlab qolganligi e’tiborga molik.

1868 yil 23 iyunda Rossiya va Buxoro o‘rtasida savdo shartnomasi imzolanadi. Shu vaqtdan boshlab ikki mamlakat o‘rtasidagi savdo munosabatlari yangi bosqichga ko‘tariladi. Ushbu shartnomaga ko‘ra, ikki davlat savdogarlari bir xil huquqqa ega bo‘ladi. Bundan tashqari, shartnoma bandlariga muvofiq, ikki tomon savdogarlariga

10 Ёров А.Ш. Бухарский эмират на мировом рынке... – С.50.
11 Терентьев М.А. Англия и Россия в борьбе за рынки. – СПб., 1876. – С.60.
12 Ёров А.Ш. Бухарский эмират на мировом рынке... – С.54.
13 Рожкова М.К. Экономические связи России со Средней Азии ... – С.64.
14 Ёров А.Ш. Бухарский эмират на мировом рынке... – С.54.

mamlakat hududida karvonsaroylar qurish va karvonboshilarni tayinlash huquqi ham beriladi. Boshqa bir bandga muvofiq, rus savdogarlaridan Buxoroda olinadigan savdo solig‘i 5 foizdan 2,5 foizga tushiriladi.

Turkiston general-gubernatorligining joriy etilishi natijasida Petropavlovsk, Semipalatinsk, Orenburg va Troisk bojxonalari o‘zining oldingi ahamiyatini yo‘qotadi. Bu davrda buxorolik savdogarlardan Rossiyaga olib chiqqan savdo mollaridan boj olish bekor qilinadi. Lekin bojxona nazoratchilari boshqa savdogarlar qatori buxorolik savdogarlardan ham majburan boj olishni to‘xtatmagan. Bu esa buxorolik savdogorlar orasida narozilik kayfiyatini yuzaga keltiradi. Natijada Rossiya hukumati 1868 yilning 22 aprelida Orenburg-Sibir bojxona maskanini yopishga majbur bo‘ladi.

XIX asrning ikkinchi yarmida Buxoro amirligida bo‘lgan amerikalik diplomat Yujin Skayler Buxoro amirligining Rossiya bilan olib borgan savdo aloqalarini aniq raqamlarda ko‘rsatish juda mushkul ish ekanini ta’kidlaydi. 1868 yilda OrenburgSibir bojxona liniyasi bekor qilinganidan so‘ng, statistik ma’lumotlarni to‘plash ham to‘xtatiladi. Buxoro-Rossiya o‘rtasida import va eksport qilingan mahsulotlarning miqdori va narxi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni endi faqat qayd qilingan deklaratsiyalardangina olish mumkinligini yozadi[15].

1861 yilda Amerikadan Rossiyaga olib kelinadigan paxtaning hajmi keskin qisqarib ketadi. Natijada Rossiya bozorlarida paxtaning narxi bir necha baravarga o‘sib ketgan. 1862 yilda Buxoro amirligidan olib borilgan bir pud paxtaning narxi Rossiyada 12-13 rubldan[16] sotilgan bo‘lsa, 1864 yilga kelib esa 2223 rublgacha ko‘tarilgan[17]. Bu jarayon Rossiya to‘qimachilik sanoatining paxtaga bo‘lgan talabi keskin ortib borishi bilan izohlanadi. Paxta sanoatining ehtiyojlarini qondirish uchun Rossiya hukumati Buxoro amirligida ham paxta ekin maydonlarini kengaytirishga katta e’tibor bera boshlaydi[671]. Rossiya sanoati uchun zarur bo‘lgan xomashyoni O‘rta Osiyodan olib kirish maqsadida 1868 yilning 12 dekabrida moliya vazirligining roziligi bilan

15 Южин С. Туркистон: Россия Туркистони, Қўқон, Бухоро ва Ғулжага саёҳат қайдлари ... – Б.160.
16 Туркестанские ведомости. 1871. № 5.
17 Мусаев Н. XIX асрнинг II ярми–XX аср бошларида Туркистонда саноат... – Б.16.,

Kaufman tomonidan farmon imzolandi[18]. Bu farmonda O‘rta Osiyodan Rossiya sanoati uchun kerakli xomashyolarni olib kirishda hech qanday boj olinmasligi nazarda tutilgan[19].

XULOSA. XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Buxoro amirligi Rossiya bilan jadal suratlarda savdo aloqalarini davom ettiradi. Bu davrda savdo-sotiq hajmi kengayib, bir necha baravarga o‘sgan. Buxorolik savdogarlarning nufuzi hali ham ancha yuqori bo‘lib, ular Rossiyaning turli shaharlarida mustaqil ravishda savdo-sotiq ishlarini izchil amalga oshirib turganlar. Ammo XIX asrning 70-yillaridan e’tiboran Rossiya imperiyasi Buxoro amirligini o‘zining xomashyo bozoriga aylantirishga doir harakatlarini boshladi. Natijada Buxoro-Rossiya o‘rtasida bir nechta o‘zaro kelishuv shartnomalari imzolanadi. Bu shartnomalar faqat rus hukumati manfaatlariga xizmat qilib, Buxoro hukumati bundan deyarli manfaatdor emasdi. XIX asr oxiriga kelib savdo karvonlari vositasida savdo-sotiq ishlarini yurgizish o‘z ahamiyatini yo‘qotdi. Amirlikka temir yo‘lning kirib kelishi Buxoro va Rossiya savdogarlariga qulaylik va imkoniyatlar yaratdi. Yuklarni tashishda temir yo‘llardan foydalanila boshlandi. 1895 yilda Rossiya-Buxoro bojxona chizig‘i bekor qilinib, amirlikning barcha bojxona tizimi Rossiya bojxonasi tasarrufiga o‘tkaziladi. Shu tariqa Buxoro amirligi o‘z bojxona tizimidan mahrum bo‘ldi. Buxoro bozorlari shu kundan boshlab Rossiya ichki bozorlariga tortildi. Bu amirlik iqtisodiga berilgan juda katta zarba edi. Shuday qilib Buxoro hukumati iqtisodiy mustaqilligini ham qo‘ldan boy berdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Мусаев Н. XIX асрнинг II ярми–XX аср бошларида Туркистонда саноат... – Б.16.,

2. Раззоқов Д.Х. Бухоро хонлигининг ташқи савдо алоқалари (XIX асрнинг 60-90 йиллари). Тар. фан. номзоди дисс... – Ташкент, 1994. – Б. 56.

18 Соколов А.Я. Торговая политика России в Средней Азии и развитие русскоафганских торговых отношений. – Ташкент, 1971. – С.65.

19 Раззоқов Д.Х. Бухоро хонлигининг ташқи савдо алоқалари (XIX асрнинг 60-90 йиллари). Тар. фан. номзоди дисс... – Ташкент, 1994. – Б. 56.

3. Петровский Н.Ф. Моя поездка в Бухару. Путевые наблюдение и заметки. – Ташкент, 1872. – С.238.

4. Петровский Н.Ф. Моя поездка в Бухару. Путевые наблюдение ... – С.242-243.

5. Раззоқов Д.Х. Бохоро хонлигининг ташқи савдо алоқалари ... – С.65.

6. Ремез И.А. Внешняя торговля Бухары до мировой войны... – С. 49.